

**ANDIJON VILOYATIDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA XAVFLARNI ANIQLASH**AQXAI assistenti **B.B.Umarov**AQXAI talabasi **Zokirova Manzuraxon Umirzoq qizi**AQXAI talabasi **Orifjonova Durdona Yaxyobek qizi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Andijon viloyatida mavjud ekologik muammolar va xavf-xatarlar tahlil qilinadi. Hududda atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi va ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, chiqindilar muammosi hamda transport va sanoatning salbiy ta'siri asosiy ekologik tahdidlar sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu muammolarning inson salomatligi va tabiiy muhitga ta'siri baholanadi hamda ularni kamaytirish bo'yicha amaliy takliflar beriladi. Tadqiqot natijalari hududiy ekologik siyosatni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Ekologik muammo, atmosfera ifloslanishi, suv resurslari, tuproq degradatsiyasi, chiqindilar, ekologik xavfsizlik, sanoat chiqindilari, transport emissiyasi, bioxilma-xillik, Andijon viloyati

Bugungi kunda dunyo aholisi sonining ko'payishi va fan texnikaning rivojlanib borishi natijasida yer yuzasida ko'plab turli darajadagi muammolar yuzaga kelmoqda. Insonlarning tabiatdan nooqilona foydalanishi tufayli tabiat kundan-kunga qashshoqlashib bormoqda. Shuningdek, bunday muammolar yurtimiz O'zbekistonda ham kuzatilmoqda. Bunga sabablar turlicha bo'lib, tabiiy resurslarni qazib olish jarayonida, ishlab chiqarishni keng ko'lamda yoyilib borishi shaharlashishni kengayishi, transport tizimining zichlashib borishi va boshqa hollarda yuzaga keladi. Andijon viloyati Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, o'ziga xos tabiiy resurslar, qishloq xo'jaligi, sanoat va urbanizatsiya bilan ajralib turadi. Shuningdek, bu hududda ekologik muammolar, masalan, yerning eroziyasi, suv resurslarining noto'g'ri boshqarilishi, havo ifloslanishi va ekotizimlarning o'zgarishi kabi masalalar yuzaga kelmoqda. Geoekologik holatni to'g'ri baholash va unga samarali choralar ko'rish zarurati ayniqsa o'sib borayotgan aholisi va intensiv qishloq xo'jaligi faoliyati bilan o'sayotgan viloyatda juda dolzarb.

Andijon viloyatida sanoat va transportning geoekologiyaga ta'siri ham mamlakatdagi boshqa hududlar kabi o'ziga xos va jiddiy ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Viloyat, O'zbekistonning shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, sanoatning rivojlanishi, transport tizimining kengayishi va qishloq xo'jaligiga bo'lgan ehtiyojlar muayyan ekologik salbiy ta'sirlarga olib kelmoqda.

Andijon viloyatidagi sanoat korxonalarini, ayniqsa, paxta tozalash, kimyo sanoati va mashinasozlik sohasidagi korxonalar ko'p miqdorda issiqxona gazlari (karbonat anhidrid, metan va boshqalar) chiqaradi. Bu, o'z navbatida, viloyatning iqlimiga salbiy ta'sir ko'rsatib, global isish jarayonlarini kuchaytiradi.

Andijon viloyatida Transport yo'llari shaharda asosiy o'rin egallaydi. Transport vositalari qatnaydigan ko'chalar soni 365 ta bo'lib, umumiy uzunligi. 770 km ni tashkil etadi. Andijon shahri, Andijon, Oltinko'l, Asaka, Shahrixon, Buloqboshi tumanlari peshqadam.

Transport sektori ham CO2 chiqindilarining asosiy manbaiga aylangan. Andijon viloyatida avtomobillar soni ortib borishi, dizel va benzin ishlatadigan transport vositalari havo ifloslanishiga olib keladi, bu esa iqlim o'zgarishining kuchayishiga yordam beradi.

Atmosfera havosidagi zararli moddalarning sifati va miqdori quyidagilarda namoyon bo'ladi. Atmosfera havosining ifoslantiruvchi moddalar har qanday gaz yoki zarracha bo'lib, u yetarli darajada yuqori konsentratsiyada inson salomatligiga va atrof muhitga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Ifoslantiruvchi moddalar inson salomatligiga zararli hisoblanadi va ayniqsa, keksa odamlar va bolalar kabi himoyaga muhtoj aholi uchun xavflidir. Manzarali daraxtlar havoning



ifloslantiruvchi moddalarini kamaytirishda havo sifati va aholi salomatligini yaxshilashga yordam beradi. Tashqi muhitni ifloslantiruvchi moddalar yetarli o'rganib chiqilgan. Atmosfera havosining tarkibi va sifatiga avtomobil tashlamalarini (ATM) tashkil quyidagi ifloslantiruvchi omillar ko'proq ta'sir etadi:

- Uglерod oksidlari: is gazi – SO va karbonat anhidrid – SO<sub>2</sub> (chiqindining 50%);
- Oltinugurt oksidlari: SO<sub>2</sub> va SO<sub>3</sub> 16%;
- Uchuvchan organik birikmalar (UOB): metan – SN<sub>4</sub>, benzol – S6N<sub>6</sub>, xlorftoruglerodlar (15%);
- Azot oksidlari: NO, NO<sub>2</sub> va N<sub>2</sub>O 14%;
- Muallaq zarrachalar: chang, qurum, asbest, qo'rg'oshin tuzlari, margimush, sulfat kislotasi N<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, neft va h.k 5%;
- Issiqlik nurlanishi;
- Shovqin – suronlar.

1-rasm



So'nggi ma'lumotlarni solishtirganda, faqat transport vositalarining ichki yonuv dvigatellari tomonidan atmosferaga chiqarib tashlanadigan ishlatilgan gazlar tarkibida 500 dan ortiq organik birikmalar mavjudligi aniqlangan. Atmosferaning ifloslanishi xalq xo'jaligiga katta iqtisodiy zarar yetkazadi

- Bir qancha izlanuvchilar tomonidan kuzatishlar natijasida tashqi muhitni ifloslantiruvchi moddalarni o'rganib chiqilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, iqlimni global isishi va azon qatlamining yemirilishi darajasiga olib keladi. Shu jumladan, Andijon shahrimizda ham atmosfera havosining ifloslanishini kuzatish 4 ta doimiy punktda olib borilmoqda. Toza havo oyligi o'tkazilgan kunlarda viloyat tumanlarning avtomagistral ko'chalarida ham kuzatishlar olib boriladi.

- 1– post. Avtomagistral yo'l.
- 2– post. Bobur va Gagarin ko'chalari.
- 3– post. Aholi yashaydigan rayon (Mashrabiyo ko'chasi)
- 4– post. Sanoat korxonasi (Yu.Otabekov ko'chasi).

Bu doimiy punktlarda atmosfera havosini ifloslantiruvchi 10 ta modda bo'yicha monitoring amalga oshirishda tadqiqotlar darajasida o'rganishga muhim hissa qo'shadi. Hyun Mi Cho, Jongke Lee lar olib borgan ilmiy izlanishlar natijasida atmosfera havosi sifat omillarini o'rganib kimyoviy ifloslantiruvchi moddalar, ya'ni uglерod oksidi va dioksid, formaldegid, uchuvchi organik birikmalar azot oksidlarini aniqlagan. Havo sifatini o'rtacha qiymati quyidagicha – 12 mkg/less dan kam, karbonat anhidridning o'rtacha darajasi – 754,2 ppm, formaldegid – 46,6 mkg/m<sup>3</sup>, uchuvchi organik birikmalar – 335,0 mkg/m<sup>2</sup>, havodagi bakteriyalarning umumiy miqdori – 37,8 SFU m<sup>2</sup> va radon – 59,5 Bq/m<sup>2</sup>. Havo sifatini aniq tahlil qilish uchun doimiy ravishda o'lchash zarur deb hisoblaydi. [107; 293–309–b;] Har bir moddaning foyda yoki zarar



ekani ruxsat etilgan miqdoriga ko'ra belgilanadi. Sanoat: Andijon viloyatidagi sanoat korxonalari, xususan, kimyo sanoati va to'qimachilik tarmoqlari, havoga zararli moddalarning chiqishini kuchaytiradi. Kimyoviy moddalar va sanoat chiqindilari (NO<sub>x</sub>, SO<sub>x</sub>, ammiak, va boshqalar) havoni ifloslantirib, aholi salomatligiga ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida aytilganda, Andijon viloyatida ekologik muammolar ko'p qirrali bo'lib, ular asosan antropogen omillar bilan bog'liq. Atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi va sifatsizlanishi, tuproq unumdorligining pasayishi hamda chiqindilarni boshqarish tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi hududda ekologik xavflarni kuchaytirmoqda. Bu muammolar nafaqat tabiiy muhitga, balki aholi salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ma'lumotlari.
2. "Atrof-muhit muhofazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
3. Karimov I.A. – "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent.
4. Abdurahmonov A.A. – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi asoslari. Toshkent, 2020.
5. Yo'ldoshev Q. – Ekologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2019.
6. BMT (UNEP) ekologik hisobotlari.
7. FAO va Jahon bankining ekologik tahliliy materiallari.

